



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 240 sahifa,
16-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Tinglovchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari	10
<i>Fazliddin Abdunabiyevich Abdurazaqov</i>	
Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish yo'llari	15
<i>Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li</i>	
Orfografik kompetensiyaning mohiyati va boshlang'ich sinflarda shakllanish bosqichlari	21
<i>Abduvaliyeva Nodira Alisherovna, Mo'minjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda uch o'lchamli vizualizatsiyalarning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati	25
<i>Nabijonova Feruza Valijon qizi</i>	
Loyiha texnologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish mazmuni	28
<i>O'rinova Nilufar Muxammadovna</i>	
Sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodikasi	32
<i>Qilichova Billura Yorqinxuja qizi, Homidov H. K.</i>	
Kasbiy-kommunikativ madaniyat fenomenining pedagogik talqini va rivojlanish tendensiyalari	37
<i>Tashpulatova Nodira Olimjon qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv	41
<i>Umbarova Nasiba Xolboy qizi</i>	
Xorijiy tillarni o'rganishda shaxs nutqining shakllanishida psixolingvistikaning ahamiyati	44
<i>Ahmedov Shavkat Asadilloevich, Ataboev Navruz Ihombek o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi (PIRLS dasturi misolida)	47
<i>Abduraxmanova Charos Burxanovna</i>	
Lesson Planning in English Language Teaching at Technical Universities	51
<i>Aitbaeva Nursuliu Tairbekovna</i>	
Lingvistik intellekt asosida individual o'qitish yondashuvining samaradorligi	55
<i>Allanazarova Sadoqat Azimovna</i>	
Xorij tadqiqotlarida zamonaviy oila transformatsiyasida farzandlar taraqqiyotining ijtimoiy-psixologik asoslari	59
<i>Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna</i>	
Теоретико-методологические подходы к изучению эмоциональных концептов в литературе: (на материале английских и немецких фразеологизмов)	63
<i>Сайёра Улашевна Тагаева, Азиза Анкаевна Уразкулова</i>	
The Importance of Forming a Schedule for High School Students	67
<i>D. T. Atabayeva, X. I. Abduraymova</i>	
Milliy cholg'u ansambllari orqali o'quvchilar musiqiy dunyoqarashini shakllantirish	70
<i>Dadamirzayeva Gulshanoy To'lanjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga yondashuvning texnologik xususiyatlari ...	75
<i>Jumanov Sherzod Saloyevich</i>	
Adabiyot darsliklari uchun yangi o'zbek adabiyoti namunalarini saralashning ilmiy-metodik asoslari	78
<i>Musaboyeva Zulfira Iqboljon qizi</i>	
Maktab geometriyasida ko'pyoqlilar mavzusini o'rganishning innovatsion usullari	83
<i>Pirlepesov Umrbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Generativ AI vositalarining mustaqil ta'lim jarayonidagi didaktik funksiyalari	86
<i>Qahramonova Xumora Qahramonovna</i>	
O'quvchi-sportchilar uchun individual mashg'ulot yuklamalarini avtomatik rejalashtirish va optimallashtirish imkoniyatini yaratish ahamiyati	91
<i>Qosimov Faxriddin Jo'raqulovich</i>	



Когнитивный диссонанс как социально-психологический феномен в контексте высшего образования: теоретический анализ	95
Мансурова Гульмира Рафазловна	
Регуляторный произвол или необходимый порядок? Влияние новых регуляторных механизмов на свободу расследовательской журналистики	101
Рауфова Озода	
Qizlar tarbiyasida mahalla–oila–maktab hamkorligi mexanizmlari	105
Choriyeva Dildora Ismat qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirishning samaradorligi: kompetensiyaviy yondashuv asosida	109
Tangriyev Abdulkarim Tovashevich	
O'qish savodxonligi darslarida matn bilan ishlash orqali o'quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi.....	114
Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi	
Raqamli transformatsiya sharoitida STEAM ta'limi orqali talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish	120
Kozimova Mehriniso Akbarali qizi	
Oliy ta'limda kvest texnologiyasi yordamida fizika fanining murakkab tushunchalarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish metodikasi.....	125
O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish texnologiyalari va ularning amaliy qo'llanilishi	129
Sharipov Nodir Botir o'g'li	
Management of Medical Emergencies in Outpatient Dental Clinics.....	133
Adurazzoqov Kamoliddin, Umarov Maruf, Buzrukhoda Javohir	
Psixologik farovonlikning asosiy komponentlari, ta'sir qiluvchi omillar va zamonaviy baholash usullari	138
Aliyev Samariddin Murotali o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	142
Boymurodova Sadoqat Istam qizi	
O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi.....	146
Gadoymurodova Kamola Sunnatulloevna	
Oilada bola tarbiyasining ahamiyati va uning shaxs kamolotiga ta'siri	151
Galdiyeva Mehribon Durdiyevna, Oilimova Mushtariy Xaydarali qizi	
Art-pedagogika vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik dunyoqarashni shakllantirishning pedagogik ahamiyati	154
Gulboyev Akbar Tuxtyayevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy tadbirlar orqali vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish	158
Homidov Husniddin Kupaysinovich, Yusupova Gulzor Yunusjon qizi, Norbekova Sevinch Musurmon qizi	
Bone-Grafting Materials in Oral Surgery: Classification, Biological Properties, and Clinical Application	161
Jumaqulova Mashhura Alishevovna, Buzrukhoda Javohir Davronovich	
Mediatsiya va o'qib tushunish kompetensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik	166
Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi	
Using STEM Technologies to Foster Rational Thinking in the Dentistry	169
Khonimqulov Javlon, Burkhonova Zarafuz	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini montessori metodikasi vositasida til o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish usullari modeli.....	173
Mahbuba Yusupova Rustam qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyalarni integrativ yondashuv asosida shakllantirish metodikasining samaradorligi.....	177
Nasimova N. Q.	
Analysis of Scanning Techniques Used in Orthodontic Dentistry	182
Nasrullayev Javlonbek Ta'atonovich, Rahimberdiyev Rustam Abdunosirovich	
Zamonaviylik - ta'lim konsepsiyasida asosiy mezon sifatida	187
Ochilova Gulnoza Odilovna	

MUNDARIJA SOÐERJANIE CONTENTS

O'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish metodikasi	191
<i>Qahhorova Sojida Bahodir qizi, Zokirov Javoxir G'aybullo o'g'li</i>	
Diqqat va xotira jarayonlarida raqamli texnologiyalarning roli	196
<i>Salomova Nargiza Sattorovna</i>	
Talabalarda kasbiy refleksiya rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarning empirik tahlili.....	200
<i>Shukurova Nargiza Ikramovna</i>	
Gimnastikachi qizlarda egiluvchanlik jismoniy sifatini rivojlantirish jarayonida shikastlanishlarning oldini olish	205
<i>Sultanova Musharafxon Xudoyqul qizi</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ekologik bilimlarni raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirish...	210
<i>Sayfetdinova Dildora Ikramitdinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va yo'nalishlari	216
<i>Uralova Nurxon Maxadovna</i>	
Naqshbandiya qadriyatlarini bo'lg'usi o'qituvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rni.....	220
<i>Xalmuxamedova Maxbuba Aslanovna</i>	
Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari	223
<i>Xo'jamberdiyeva Maftuna Norqobilovna, Sanaqulova Sevinch Baxtiyor qizi</i>	
Developing Logical Thinking via the Use of STEM Technology	226
<i>Yarmuhammedov Nabijon Navruzovich, Burkhonova Zarafuz</i>	
Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati	229
<i>Yo'ldoshboyeva Zulfiya Ravshan qizi, Jumayev Abdilxakim Turdiyevich</i>	
Значение предмета физического воспитания и спортивной метрологии в физическом воспитании молодежи	233
<i>Маматкулов Равшанжон Солижонович</i>	
Аксиологические аспекты диалога культур в романе Сухбата Афлатуни "Рай Земной"	237
<i>Чернова Татьяна Алексеевна, Худойназаров Сардорбек</i>	



BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI MONTESSORI METODIKASI VOSITASIDA TIL O'RGANISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI MODELI

Mahbuba Yusupova Rustam qizi

Xalqaro Nordik Universiteti Pedagogika kafedrasida tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida til o'rganish ko'nikmalarini shakllantirishda Montessori metodikasining nazariy asoslari hamda amaliy samaradorligi kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi Montessori yondashuvi asosida til o'rganishning didaktik modelini ishlab chiqish va uning boshlang'ich ta'lim jarayoniga ta'sirini eksperimental jihatdan aniqlashdan iborat. Shuningdek, Montessori metodikasining sensor yondashuv, mustaqil faoliyat va kommunikativ rivojlanishga asoslangan imkoniyatlari yoritilib, ularning o'quvchilarning til kompetensiyasini rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Montessori metodikasi, til o'rganish, boshlang'ich ta'lim, kommunikativ kompetensiya, pedagogik eksperiment, innovatsion model, sensor ta'lim.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the theoretical foundations and practical effectiveness of the Montessori method in developing language learning skills among primary school students. The main objective of the study is to design a didactic model of language learning based on the Montessori approach and to experimentally determine its impact on the primary education process. Particular attention is given to the role of sensory learning, independent activity, and communicative development within the Montessori framework, as well as their contribution to enhancing learners' language competence.

Key words: Montessori method, language learning, primary education, communicative competence, pedagogical experiment, innovative model, sensory education.

Аннотация: В данной статье комплексно исследуются теоретические основы и практическая эффективность методики Монтессори в формировании языковых навыков у учащихся начальных классов. Основной целью исследования является разработка дидактической модели обучения языку на основе подхода Монтессори и экспериментальное определение степени её влияния на процесс начального образования. Особое внимание уделяется возможностям сенсорного подхода, самостоятельной деятельности и коммуникативного развития в рамках методики Монтессори, а также их роли в формировании языковой компетентности младших школьников.

Ключевые слова: методика Монтессори, изучение языка, начальное образование, коммуникативная компетентность, педагогический эксперимент, инновационная модель, сенсорное обучение.

KIRISH

Zamonaviy globallashuv jarayonida xorijiy tillarni egallash shaxsning ijtimoiylashuvi, kasbiy rivoji va xalqaro kommunikatsiyaga kirishuvini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida til o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish keyingi ta'lim jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy poydevor hisoblanadi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, "early language learning lays the foundation for cognitive flexibility and communicative competence" (Cameron, 2001)^[1]. Shu bois, mazkur bosqichda qo'llaniladigan metod va yondashuvlarning ilmiy asoslangan bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, an'anaviy o'qitish metodlari ko'p hollarda reproduktiv faoliyatga asoslanib, o'quvchining faolligini yetarli darajada rag'batlantira olmaydi. Bu esa o'quvchilarda til o'rganishga nisbatan motivatsiyaning pasayishi, nutqiy faoliyatning sust rivojlanishi hamda kommunikativ kompetensiyaning yetarli darajada shakllanmasligiga olib keladi. Richards va Rodgers (2014)^[2] ta'kidlaganidek, "language learning is

most effective when learners are actively engaged in meaningful interaction”, ya’ni til o’rganish jarayoni faol va mazmunli muloqotga asoslangandagina yuqori samaradorlikka erishadi.

Mazkur muammoni hal etishda innovatsion pedagogik yondashuvlardan biri sifatida Montessori metodikasi alohida e’tiborga loyiqdir. Ushbu metodika bolalarning tabiiy rivojlanish qonuniyatlariga asoslanib, ularning mustaqil faoliyatini qo’llab-quvvatlash, individual xususiyatlarini hisobga olish hamda maxsus tashkil etilgan muhit orqali o’qitishni nazarda tutadi. Montessori (1967)^[3] o’z tadqiqotlarida bolalarning ichki imkoniyatlarini ochib berishda erkin va tayyorlangan muhitning ahamiyatini alohida qayd etadi. Shuningdek, Lillard (2017)^[4] Montessori metodikasini tahlil qilib, uning bolalarda ijodiy fikrlash, mustaqillik va kognitiv rivojlanishni sezilarli darajada qo’llab-quvvatlashini ilmiy asoslab bergan.

Psixologik-pedagogik yondashuvlar nuqtayi nazaridan qaraganda, til o’rganish jarayoni ijtimoiy muhit va faol muloqot bilan chambarchas bog’liqdir. Vygotsky (1978)^[5] tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-madaniy nazariyaga ko’ra, “learning is a socially mediated process”, ya’ni bilim olish jarayoni ijtimoiy o’zaro ta’sir orqali amalga oshadi. Bundan tashqari, Piaget (1952)^[6] bolalarning kognitiv rivojlanish bosqichlarini tahlil qilib, boshlang’ich yosh davrida konkret-amaliy faoliyatning ustuvorligini asoslab bergan, bu esa Montessori metodikasining asosiy tamoyillari bilan uyg’unlashadi.

Shunga qaramay, mavjud ilmiy tadqiqotlar Montessori metodikasining umumiy pedagogik samaradorligini yoritgan bo’lsa-da, uni aynan boshlang’ich sinf o’quvchilarida til o’rganish ko’nikmalarini shakllantirish vositasi sifatida qo’llashning tizimli modeli yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Bu esa mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi va ilmiy izlanish olib borishni taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu tadqiqot boshlang’ich sinf o’quvchilarida til o’rganish ko’nikmalarini shakllantirishda Montessori metodikasining samaradorligini ilmiy asosda aniqlashga qaratilgan bo’lib, unda aralash metodologik yondashuv (mixed-methods) qo’llanildi. Aralash yondashuv miqdoriy (quantitative) va sifat (qualitative) ma’lumotlarni uyg’un tarzda tahlil qilish imkonini beradi, bu esa tadqiqot muammosini yanada to’liq va ishonchli yoritishga xizmat qiladi (Creswell, 2014).

Tadqiqot dizayni sifatida kvazi-eksperimental model tanlandi, chunki pedagogik sharoitlarda to’liq nazorat qilinadigan eksperimentni tashkil etish amaliy jihatdan cheklangan. Tadqiqotda 2-3-sinf bosqichida tahsil olayotgan jami 60 nafar o’quvchi ishtirok etdi. Ular teng ravishda ikki guruhga ajratildi: 30 nafari nazorat guruhi, 30 nafari eksperimental guruh. Nazorat guruhida an’anaviy o’qitish metodlari qo’llanildi, eksperimental guruh esa Montessori metodikasiga asoslangan til o’rgatish modeli bilan ishladi.

Eksperimental jarayon davomida Montessori metodikasining asosiy tamoyillari - tayyorlangan muhit (prepared environment), mustaqil faoliyat (independent activity), sensor materiallar (didactic materials) va individual rivojlanish trayektoriyasi tizimli ravishda joriy etildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot materiallari quyidagilardan iborat bo’ldi: diagnostik testlar - lug’at boyligi, nutq ravonligi, tinglab tushunish va yozma nutq ko’nikmalarini baholash uchun; sensor materiallar - harflar, tovushlar, kartochkalar va vizual-taktil elementlar; kommunikativ mashg’ulotlar - dialoglar, rolli o’yinlar va amaliy topshiriqlar; pedagogik kuzatish varaqalari hamda yarim tuzilgan intervyular.

Ma’lumotlarni yig’ish va tahlil qilish jarayonida turli manbalardan olingan ma’lumotlar triangulyatsiya usuli orqali o’zaro taqqoslandi. Miqdoriy ma’lumotlar statistik tahlil yordamida qayta ishlanib, foiz ko’rsatkichlari hamda guruhlar o’rtasidagi farqlar aniqlandi.

1-jadval: Montessori metodikasi asosidagi til o’rgatish modeli materiallari va komponentlari

Komponent	Materiallar	Kutilayotgan natija
Tayyorlangan muhit	Til bilan boyitilgan sinf xonasi	Tabiiy va mustaqil o’rganish
Sensor materiallar	Harflar, tovushlar, kartochkalar	Tez eslab qolish, amaliy tajriba
Mustaqil faoliyat	O’quvchining o’zi bajaradigan topshiriqlar	Mustaqil fikrlash, faollik
Kommunikativ mashg’ulotlar	Dialoglar, rolli o’yinlar	Nutq va kommunikativ kompetensiya rivoji
Takrorlash va mustahkamlash	Amaliy mashqlar, testlar	Barqaror bilim



TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida til o'rganish ko'nikmalarini shakllantirishda Montessori metodikasining samaradorligi eksperimental yo'l bilan tekshirildi. Tadqiqot jarayonida eksperimental guruh (Montessori metodikasi asosida ta'lim olgan) va nazorat guruhi (an'anaviy metod asosida ta'lim olgan) o'quvchilarining natijalari qiyosiy tahlil qilindi. Baholash mezonlari sifatida lug'at boyligi, nutq ravonligi, tinglab tushunish va yozma nutq ko'nikmalari tanlab olindi.

2-jadval: Eksperimental va nazorat guruh natijalarining qiyosiy ko'rsatkichlari

Ko'nikma	Nazorat guruhi (o'rtacha ball)	Eksperimental guruhi (o'rtacha ball)	Farq (%)
Lug'at boyligi	62	78	+25.8%
Nutq ravonligi	58	74	+27.6%
Tinglab tushunish	64	80	+25.0%
Yozma nutq	60	77	+28.3%

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, eksperimental guruh o'quvchilari barcha ko'rsatkichlar bo'yicha nazorat guruhiga nisbatan yuqori natijalarga erishgan. Xususan, lug'at boyligi bo'yicha eksperimental guruhning o'rtacha ko'rsatkichi 78 ballni tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich 62 ballni tashkil etdi, ya'ni 25,8 foizlik ijobiy o'sish kuzatildi. Nutq ravonligi ko'rsatkichlari eksperimental guruhda 74 ballni, nazorat guruhida esa 58 ballni tashkil etib, 27,6 foizlik farq qayd etildi. Yozma nutq ko'nikmalarida esa eng yuqori o'sish kuzatilib, eksperimental guruhda 77 ball, nazorat guruhida 60 ball natija qayd etildi (28,3 foizga teng ijobiy o'zgarish).

Statistik tahlil natijasida mustaqil tanlovlar uchun Student t-testi (independent samples t-test) qo'llanildi. Olingan natijalar barcha ko'rsatkichlar bo'yicha eksperimental va nazorat guruhlar o'rtasidagi farqlar statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini ko'rsatdi ($p < 0.05$). Bu esa aniqlangan farqlar tasodifiy emasligini, balki qo'llanilgan Montessori metodikasining bevosita ta'siri natijasi ekanligini tasdiqlaydi.

Mazkur tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilarida til o'rganish ko'nikmalarini shakllantirishda Montessori metodikasining yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Eksperimental guruhda kuzatilgan ijobiy o'zgarishlar, xususan, lug'at boyligi, nutq ravonligi, tinglab tushunish va yozma nutq ko'nikmalarining sezilarli darajada oshgani ushbu metodikaning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Xususan, Lillard (2017) Montessori metodikasining bolalarda kognitiv rivojlanish va mustaqil fikrlashni kuchaytirishini ta'kidlab, uning ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'sirini ilmiy asoslagan. Tadqiqotimiz natijalari ham aynan shu xulosani tasdiqlaydi – eksperimental guruh o'quvchilari topshiriqlarni bajarishda mustaqillik va faollik ko'rsatganlari kuzatildi. Bu esa Montessori metodikasining asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan mustaqil o'rganish til o'rganish jarayonida ham samarali ishlashini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, Montessori (1967) tomonidan ilgari surilgan tayyorlangan muhit konsepsiyasi tadqiqot natijalarida o'z aksini topdi. Eksperimental guruhda yaratilgan til muhitining boyligi va interaktivligi o'quvchilarning tilni tabiiy ravishda o'zlashtirishiga imkon yaratdi. Bu holat Richards va Rodgers (2014) tomonidan ta'kidlangan kommunikativ yondashuv nazariyasi bilan ham mos keladi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, ayniqsa, sensor materiallardan foydalanish til o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Eksperimental guruhda harflar, tovushlar va kartochkalar bilan ishlash o'quvchilarning eslab qolish qobiliyatini sezilarli darajada oshirgan.

Shu bilan birga, tadqiqot ayrim cheklavlarga ham ega. Birinchidan, tadqiqot ishtirokchilari soni nisbatan cheklangan (60 nafar o'quvchi). Ikkinchidan, tadqiqot ma'lum vaqt oralig'ida olib borilgan bo'lib, uzoq muddatli ta'siri to'liq o'rganilmadi. Kelgusida kengroq auditoriyada va uzoq muddatli kuzatuvlar asosida tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilarida til o'rganish ko'nikmalarini shakllantirishda Montessori metodikasining samaradorligini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Montessori metodikasiga asoslangan ta'lim modeli an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan yuqori samaradorlikka ega bo'lib, o'quvchilarning lug'at boyligi, nutq ravonligi, tinglab tushunish va yozma nutq ko'nikmalarining sezilarli darajada rivojlanishiga olib keldi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan Montessori metodikasiga asoslangan til o'rgatish modeli o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Tadqiqot natijalari Montessori metodikasini boshlang'ich ta'lim muassasalarida keng joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Montessori metodikasi boshlang'ich sinf o'quvchilarida til o'rganish ko'nikmalarini samarali shakllantirishga xizmat qiluvchi innovatsion va istiqbolli pedagogik yondashuv sifatida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Cameron, L. (2001). Teaching languages to young learners. Cambridge University Press.
2. Campbell, D. T., & Stanley, J. C. (1963). Experimental and quasi-experimental designs for research. Houghton Mifflin.
3. Cohen, L., Manion, L., & Morrison, K. (2018). Research methods in education (8th ed.). Routledge.
4. Creswell, J. W. (2014). Research design: Qualitative, quantitative, and mixed methods approaches (4th ed.). SAGE Publications.
5. Lillard, A. S. (2017). Montessori: The science behind the genius (3rd ed.). Oxford University Press.
6. Montessori, M. (1967). The discovery of the child. Ballantine Books.
7. Piaget, J. (1952). The origins of intelligence in children. International Universities Press.
8. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and methods in language teaching (3rd ed.). Cambridge University Press.
9. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.